

## ASM KORXONALARIDA ISHLAB CHIQRISHNI BOSHQARISHNI RAQAMLASHTIRISH

**Quvatova Gulzoda Faxriddin qizi**

E-mail: [g.kuvatova96@mail.ru](mailto:g.kuvatova96@mail.ru)

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada ASM korxonalarida ishlab chiqarishni boshqarishni raqamlashtirish va ASM korxonalarida ishlab chiqarish va ularning miqdoriy tomonini, aniq joydagi vaqtdagi jarayonlarini, miqdoriy nisbati va o'lchamlarini, bog'lanishi va rivojlanish qonuniyatlarini va monitoringini axborot kommunikatsiya texnologiyalari orqali tashkil qilish va optimal qarorlar qabul qilishdir.

**Kalit so'zlar:** ASM korxonalari, raqamli transformatsiya, irrigatsiya, melioratsiya, selektsiya, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari.

### АННОТАЦИЯ

В данной статье рассмотрены вопросы цифровизации управления производством на предприятиях АСМ и организации производства на предприятиях АСМ и их количественная сторона, процессы в конкретном месте и времени, количественные пропорции и размеры, связь и закономерности развития и контроля с помощью информационно-коммуникационных технологий и принимаются оптимальные решения.

### ABSTRACT

In this article, the digitization of production management in AIC enterprises and the organization of production in AIC enterprises and their quantitative side, processes in specific place and time, quantitative proportions and dimensions, connection and development laws and monitoring through information communication technologies.

Agrosanoat majmui (ASM) korxonalarida ishlab chiqarish va boshqarishni tashkil etishga, ishlab chiqarish va ixtisoslashuvning tashkiliy shakllari ham ta'sir ko'rsatadi. Ko'p tarmoqli ishlab chiqarishning shakllanishi va rivojlanishi hisob ob'ektlarining, umuman hisob ishlarining ko'payishiga olib keladi.

Bugungi kunda rivojlanish maydonida raqamli transformatsiya tushunchasi asosiy jarayonlardan biri sifatida ko‘rilmoqda. Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, barcha tarmoqlar va sohalarda, eng avvalo, davlat boshqaruvi, ta‘lim, sog‘liqni saqlash va qishloq xo‘jaligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.<sup>41</sup>

Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish orqali qishloq xo‘jaligida yerdan foydalanish unumdorligini oshirish, mahsulotlar tannarxini kamaytirish va eksport salohiyatini oshirish tizimini tashkil etish – bu qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishni rivojlantirish bilan bevosita bog‘liq ustuvor yo‘nalishlaridan biridir.

Shu munosabat bilan ularni raqamli bir tizimga keltirish, ishlab chiqarish va moliyaviy faoliyatni amalga oshirish ustidan nazorat qilib borish uchun raqamli texnologiyalardan foydalanib, kuzatuv olib borish zaruriyati vujudga keladi. Shuning uchun xo‘jaliklarning unchalik murakkab bo‘lmagan yozuv daftarchasi va ASM korxonalari uchun raqamli statistik hisobotni tashkil etish o‘rinlidir.

Mahsulot ishlab chiqarish jarayonini ikkiga, dastlabki va ikkilamchi mahsulot ishlab chiqarishga ajratamiz. Raqamli transformatsiyaning ahamiyatlilik jihatlaridan biri, faqat homashyo yetishtirish va uning eksportini amalga oshirish samaradorligini ta‘minlash emas, balki ikkilamchi mahsulot ishlab chiqarishni ham qo‘llab-quvvatlashdir. Aytaylik, raqamli texnologiyalar tadbiq etilishi bilan qishloq xo‘jalik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi oshdi, mehnat unumdorligiga erishildi. Buning ikkinchi tomoni ham borki, ya‘ni bo‘shatilgan mehnat resurslarini maqsadli yo‘naltirish masalasi paydo bo‘ladi. Hududning boshqa iqtisodiy sektorlarida mazkur mehnat resurslariga talab yetarli darajada emas. Bu holatda qo‘llanilayotgan zamonaviy texnologiyalarning samaradorligi faqat bir tomonlama bo‘lib qolishi tabiiy. Demak, ikkilamchi mahsulot ishlab chiqarish va uning eksporti masalaning eng oddiy yechimi sifatida baholanadi. Shundagina ko‘zlangan maqsadga erishilgan hisoblanadi.

ASM korxonalari ishlab chiqarish parametrlarini baholashda xorij tajribasiga tayanish asosiy manbalardan biridir. Rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyot sektorlarida raqamli texnologiyalarning qo‘llanilishi haqida so‘z ketganda, uning nafaqat qishloq xo‘jaligi, balki, iqtisodiyotning turli tarmoqlarida samaradorlik ko‘rsatkichlarini axborot sifatida qabul qilish mumkin. Chunki raqamli texnologiyalar iqtisodiyot

<sup>41</sup> «Raqamli O‘zbekiston — 2030» strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Toshkent sh., 2020 yil 5 oktabr, PF-6079-son

tarmoqlarining barchasining kompleks rivoji uchun birday xizmat qiladi va umum rivojlanish holatini belgilab beradi. Shu ma'noda iqtisodiy o'sish darajasini raqamli texnologiyalar bilan bog'laganda, ko'plab jahonning yetakchi ilmiy tadqiqot markazlari, tadqiqot institutlarining tadqiqot ishlarida iqtisodiyotning ma'lum sektori faqat shu sektorga tegishli natijalar tahlili bilan cheklanib qolmagan.<sup>42</sup>

ASM korxonalarida boshqaruv hisobining yaxshi yo'lga qo'yilmaganligi bois, ularning statistikasini yuritishda ham ma'lum muammolar paydo bo'lmoqda. Bunday muammolardan biri xo'jaliklarining xususiyatlariga mos bo'lgan ekonometrik va statistik ko'rsatkichlar tizimi mukammal yaratilmaganligidir. Ya'ni hozirga qadar ham xo'jaliklarining statistik ma'lumotlari umumlashtirilayotganda an'anaviy ASM korxonalarini statistikasidan foydalanib kelinmoqda. Shu sababli, ASM korxonalarini statistikasi tarkibida ASM korxonalarini statistikasini yaratish, ularning xususiyatlarini aks ettiruvchi ko'rsatkichlar tizimini ishlab chiqish hamda statistik hisobotlarni takomillashtirish lozim.

ASM korxonalarini ishlab chiqarish va boshqarishni raqamlashtirishdan maqsad, ularning miqdoriy tomonini, aniq joydagi vaqtdagi jarayonlarini, miqdoriy nisbati va o'lchamlarini, bog'lanishi va rivojlanish qonuniyatlarini va monitoringini axborot kommunikatsiya texnologiyalari orqali tashkil qilish va optimal qarorlar qabul qilishdir.

ASM korxonalarini ishlab chiqarishni miqdoriy o'rganish bu ekonometrika va statistikaning obyektiv xususiyatidir. Fermer xo'jaliklarni miqdoriy xarakteristikalarini barcha yig'ilma birliklari uchun bir marotaba va butunlay belgilab qo'yilgan emas. Davrning har bir vaqti uchun voqelik o'z darajasiga ega bo'lib, statistika ko'rsatkichlariga kiritilgan yoki kiritilmaganligiga bog'liq emas. Bu xo'jalik voqeliklarining o'zgarishidir. ASM korxonalarini ishlab chiqarish va boshqarishni tadqiqot obyekti sifatida o'rganar ekanmiz, uning rivojlanishi quyidagi muammolarni bartaraf etish bilan bog'liq ekanligiga amin bo'ldik.

Xususan, Qashqadaryo viloyatida

- yerlarni sug'orish bo'yicha nomutanosibliklar mavjudligi;
- yerlardan to'g'ri foydalana bilish uchun amaliy va nazariy tajribalarning yetishmasligi;
- ayrim mahsulotlarning xarid narxlari pastligi;

---

<sup>42</sup> Б. М. Гарифуллин, В. В. Зябриков. Цифровая трансформация бизнеса: модели и алгоритмы. Журнал креативная экономика. Том-12, №9,09.2018, 1345-1358

- ASM korxonalarini mahsulotlarini qayta ishlovchi monopol korxonalarining yetakchi mavqei hamon saqlanib qolayotganligi;
- qishloq xo‘jalik xodimlariga xizmat ko‘rsatish bozori yetarli darajada xizmat ko‘rsata olmasligi;
- ASM korxonalarini mahsulotlarini yetishtirish to‘la moliyalashtirilmaganligi;
- shartnoma tuzishda ayrim eskicha yondashuvlarning mavjudligi;
- texnika xizmatlari bajarilishida yoqilg‘i – moylash materiallari tanqisligi ;
- muqobil mashina traktor parklarida xizmat ko‘rsatishning talab darajasida emasligi yoki xarajatlarning yuqoriligi.

Ushbu muammolarni bartaraf etishning quyidagi yechimlari mavjud deb hisoblaymiz:

- ASM korxonalarini xodimlari ish faoliyatiga yordam berish maqsadida – axborot maslahat guruhlarini tashkil etish;
- barcha turdagi shartnomalar bo‘yicha onlayn ma‘suliyatni oshirish ;
- shartnoma sharhlari, rejalar bajarilishini aniqlik bilan ishlab chiqarishni monitoring qilish;
- xo‘jaliklar o‘z mablag‘laridan erkin foydalanishlariga erishish ;
- suv resurslaridan foydalanishdagi muqobil suv ta‘minoti uyushmalari xizmatini yaxshilash va suv resurslaridan tejamkorlik bilan foydalanishni aqlli hisoblagichlar orqali yo‘lga qo‘yish;
- yer maydonlarini yaxshilash uchun kredit berish mexanizmlarini yaxshilash;
- xo‘jaliklarga servis xizmatlar ko‘rsatishni yaxshilash va servis korxonalarini bilan tuziladigan shartnomalarni takomillashtirish .

Yangi O‘zbekiston sharoitida ASM korxonalariga xizmat ko‘rsatish tizimi irrigatsiya, melioratsiya, seleksiya kabi g‘oyat muhim sohalar bilan chambarchas bog‘lanib ketadi. Zero, O‘zbekiston ASM korxonalarini ayni shu tarmoqlarning yuqori saviyadagi rivojisiz tasavvur qilish mumkin ham emas. Jumladan, Qashqadaryo viloyati qishloq xo‘jaliklarini rivojlantirishning SWOT-tahlili quyida keltirilgan (1-jadval).

### 1-jadval

#### Qashqadaryo viloyati qishloq xo‘jaliklarini rivojlantirishning SWOT-tahlili<sup>43</sup>

KUCHLI TOMONLAR	ZAIF TOMONLAR
<ul style="list-style-type: none"> <li>□ ASM korxonalarini rivojlantirish uchun maxsus ASM korxonalaridagi islohotlarning o‘tkazilayotganligi va huquqiy asoslarining yaratilganligi;</li> <li>□ ASM korxonalarini rivojlantirish uchun alohida “ASM korxonalarini to‘g‘risida” gi Qonunning qabul qilinganligi;</li> <li>□ Qonun asosida – yer va mulk egasi bo‘lib shakllanganligi;</li> <li>□ ASM korxonalarini tadbirkorlik shakliga kirishi va bunda jamiyatning bosh bo‘g‘ini xalq manfaati qondirilayotganligi;</li> <li>□ dehqon va fermerlarda yer bilan ishlash ko‘nikmasi to‘liq shakllanib bo‘lganligi;</li> <li>□ mayda tovar ishlab chiqaruvchi xo‘jalik sifatida tez moslashuvchanligi, bankrotlikka moyil emasligi;</li> <li>□ faoliyatining daromad olishga qaratilganligi.</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>□ qishloq xo‘jaliklarini rivojlantirish uchun zaruriy iqtisodiy mexanizmlarning takomillashmaganligi;</li> <li>□ bugungi kunda qishloq xo‘jaliklari uchun aniq tartibga solingan, qulay ta‘minot tizimi mavjud emasligi;</li> <li>□ qishloq xo‘jaliklarini zaruriy resurslar bilan ta‘minlash asosan xususiy shaxslar tomonidan amalga oshirilayotganligi;</li> <li>□ qishloq xo‘jaliklarining sifatli resurslarni olishga bo‘lgan imkoniyatining cheklanganligi;</li> <li>□ qishloqlarning iqtisodiy savodxonligini oshirishga qiziqishi sustligi, ular yer bilan ishlashni bilsak, shuning o‘zi yetarli deb bilishi va natijada:</li> <li>□ yuridik maqomdagi qishloq xo‘jaliklari sonining kundan-kunga kamayib borayotganligi.</li> <li>□ zaruriy texnika vositalarining yetishmasligi, boshqa xo‘jalik sub‘ektlari bilan o‘zaro kooperatsiya munosabatlarining buzilganligi, yetishtirilgan</li> <li>□ mahsulotlarni sotib olish tizimining yo‘qligi.</li> </ul>
IMKONIYATLAR	TAHDIDLAR
<ul style="list-style-type: none"> <li>□ qishloq xo‘jaliklari iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlarining oshishi natijasida qishloq aholisining qiziqishi ortib borayotganligi;</li> <li>□ qishloqda band bo‘lgan aholi sonining qishloq xo‘jaliklari hisobiga ko‘payayotganligi;</li> <li>□ mahalliy investitsiyalarni jalb etish imkoniyatining ko‘payayotganligi;</li> <li>□ chorvachilikka ixtisoslashgan qishloq xo‘jaliklarining sifat ko‘rsatkichi doimiy ravishda yuqoriligi;</li> <li>□ davlat tomonidan uzluksiz ravishda qishloq xo‘jaliklarini qo‘llab-quvvatlovchi chora-tadbirlar, dasturlar qabul qilinayotganligi.</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>□ ASM korxonalarini sohasidagi biznes bilan shug‘ullanuvchilar sonining ortib borayotganligi;</li> <li>□ qishloq xo‘jaliklarining shaxsiy tomorqa va aholi xo‘jaliklari bilan doim yonma-yon, birgalikda talaffuz etilishi, bu esa uchala xo‘jalikni ham bitta qilib birlashtirilgan holda olib borish mumkin degan xulosaga olib borayotganligi;</li> <li>□ qishloq manfaatining “chayqovchi”larning hisobiga salbiy ravishda, qisman qondirilayotganligi;</li> <li>□ cho‘l zonalarida qishloq xo‘jaliklari sonining keskin kamayib borayotganligi.</li> </ul>

<sup>43</sup> Muallif tomonidan ishlangan

SWOT-tahlili orqali viloyat qishloq xo‘jaliklarini tashkil etishda nimalarga e‘tibor qaratish lozimligini, oila, jamiyat va davlat manfaatini qondirishda qishloq xo‘jaliklarining ahamiyatini tushunib olish mumkin bo‘ladi. Jumladan, ASM korxonalarini tashkil etmoqchi bo‘lgan fuqarolarimiz ASM korxonalarini davlat o‘z himoyasiga olganligini, huquqiy asos mavjudligini, tanlagan ish faoliyati orqali oilasining ham, aholining ham manfaatini qondirayotganligini bilgan holda o‘z ishini boshlaydilar. SWOT-tahlili natijalari viloyatda faoliyat yuritayotgan boshqa qishloq xo‘jaliklariga o‘z raqiblari holatini bilish uchun ham yordam beradi, chunki tahlilda qishloq xo‘jaliklari o‘zlarining kuchli va zaif tomonlarini, imkoniyatlari va xavf solayotgan tahdidlarini ham sanab o‘tadilar.

Yer va tuproq tiriklikning eng ulug‘ ne‘matlaridan biridir. U insoniyatning rizqu-ro‘zi, nasibasi hisoblanadi. Shunday ekan, mavjud ASM korxonalariga yaroqli yerlardan samarali foydalanish, tuproq unumdorligini saqlash va oshirish bugungi kunning asosiy masalalaridan biriga aylandi. ASM korxonalarini raqamlashtirish orqali agrar sohadagi utkazilayotgan isloxotlarning kuyidagi vazifalari hal etiladi;

- qishloqda hususiy mulkchilik va mulkdorlar qatlami shakllanadi va raqamli agrobiznes rivojlanadi;

- agrar sektorda iqtisodiy munosabatlar raqamli iqtisodiyotning usul va mexanizmlariga mos ravishda amalga oshadi;

- ASM korxonalari tadbirkorlarida bevosita ishlab chiqarish natijasida moddiy manfaatdorlik paydo bo‘ladi va bu orkali mulkdan samarali foydalanishga erishiladi;

- chinakam raqobat vujudga keladi va natijada ishlab chiqarish samaradorligini, maxsulot sifatini xo‘jalikning yakuniy iqtisodiy-moliyaviy ko‘rsatkichlarini yaxshilashga qiziqish va intilish kuchayadi;

- xo‘jalik faoliyatini oshirish, olingan daromadlarini taqsimlash va boshqa tadbirkorlik erkinliklari tufayli boshqa xo‘jalik yuritish sub’ektlari bilan bevosita tuziladigan shartnomalar asosida faoliyat olib boriladi, shuningdek, daromadlarni yanada ko‘paytirish maqsadida ishlab chiqarishni kengaytirishdan, ya‘ni faqat ASM korxonalari maxsulotlarini yetishtirishgina emas, balki ularni qayta ishlab, tayyor maxsulotlar ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yishdan manfaatdorlik paydo bo‘ladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-4947-sonli Farmoni. // Xalq so‘zi. 2017 yil. 8- fevral.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M. Mirziyoevning Oliy majlisga murojaatnomasi. // Xalq so‘zi. 2018 yil. 29-dekabr.
3. Abilgazieva J. Qishloq tumanlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish konsepsiyasi // Iqtisodiyot va ta‘lim. – Toshkent, 2008. - №2. - 97. PF-6079 "O‘zbekiston Respublikasining 2035 yilgacha rivojlanish strategiyalari" davlat dasturi 5.10.2020
4. Б. М. Гарифуллин, В. В. Зябриков. Цифровая трансформация бизнеса: модели и алгоритмы. Журнал креативная экономика. Том-12, №9, 09.2018, 1345-1358
5. Кейнс Дж. Избранные произведения. Пер. с англ. - М.: Экономика, 1993. - 436 с. Портер М. Международная конкуренция: пер. с англ. под ред. Щепшина В.Д. – М.: Международные отношения, 1993. - 886 с.
6. Muxitdinov X.S., Jo‘raev F.D. Qishloq xo‘jalik mahsulotlari ishlab chiqarish jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etishning optimallashtirish masalalarini modellashtirish. // Innovatsion iqtisodiyot: muammo, tahlil va rivojlanish istiqbollari mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjumani tezislari to‘plami. Qarshi 2021 yil. 44-48 betlar